ISSN 2181-7839

XALQ TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

Muassis:
O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va Maktab ta'limi vazirligi

PUBLIC EDUCATION

SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL
MINISTRY OF PRESCHOOL AND SCHOOL EDUCATION
OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

2024

1-son

(Yanvar-Fevral)

Jurnal 1918-yil dekabr oyidan chiqa boshlagan
O'zMAA tomonidan 2013-yil 4-martda qaytadan ro'yxatga olinib, 0104-raqamli guvohnoma berilgan.

TOSHKENT

MUNDARIJA

		TAHRIRIYAT
	4	Zamonaviy ta'lim va sharqona tarbiya uyg'unligi
		TA'LIM VA TARBIYA NAZARIYASI
M. Maxmudov	6	Milliy oliy ta'limni "zamonaviy ta'lim va sharqona tarbiya uyg'unligi" tamoyili asosida rivojlantirish – raqobatbardoshlik garovi
D. Sabirjonova	9	Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarinng sotsiolingvistik kompetensiyalarini shakllantirish
M. Goziyeva	12	Autentik videomateriallar vositasida talabalarning ingliz tilidagi sotsiopragmatik kompetensiyasini rivojlantirishning samarali yo'llari
D. Valiyev	15	Tilshunoslik va fonetikaning shakllanishi va taraqqiyoti
A. To'rayev	18	Tilshunoslikda leksik birliklar va diskurs munosabatlari
I. Do'stmurodova	21	Terminlarni tarjima qilishda o'ziga xos xususiyatlar
R. O'ktamboyeva	24	The role and importance of the concept of ESP in Uzbekistan
Sh. Mukhammadiyeva	28	Problems with translating english idiom specifications into uzbek
M. Shoymardonova	31	Difficulties in teaching productive skills of the English language among the ESP learners
F. Ibadova	35	Theories and models of development of international trade
Г. Умарбекова	37	Проблемы творческих подходов в процессе обучения студентов русскому языку
Г. Тошкулова	42	Проблемы усвоения слухопроизносительных навыков изучающим русский язык как иностранный
К. Усманова	46	Некоторые вопросы использования медиа-информации в преподавании английского языка
		TA'LIM VA TARBIYA METODIKASI
E. Imomov	49	Ingliz tilidan o'zbek tiliga so'z birikmalari tarjimasida leksik kompressiyadan foydalanish
S. Oripova	55	Ingliz tilida frazeologik birliklarning leksik-semantik xususiyatlari
G. Ruziyeva	57	Idioms as a unique code: linguistic aspect
M. Saparov	61	The sociolinguistic components of language instruction with it in primary schools: talking pen robot
N. Imomova	64	Ways of expressing the category of diminutiveness in English
K. Umarova	70	Socio-political, ethical and educational views in the works of "Dublinians" and "Men of war"

A. Hakimov	74	Youth and student slang in british and american english an annotated bibliography
D. Boboqulova	77	Concepts of masculinity and femininity in proverbs and sayings
Z. Raxmatullayev, D. Xakimova	82	Галлицизмы военной тематики и их деривационные и семантические особенности
Э. Азмиева	87	Своеобразие русского потешного фольклора
Д. Алиева	91	Проблемы фонетики в узбекском и русском языке
Г. Умарова	96	Трудности правописания сложных прилагательных
		ZAMONAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARI
A. Mirsaidov	100	Semiotik yondashuv asosida lingvokulturologik tadqiqotlarning asosiy yo'nalishlarini aniqlash
T. Pardayev	105	Madaniyatlararo muloqotning kognitiv-semantik xususiyatlari hamda ijtimoiy integratsiyaning multikulturalistik diskursi
D. Nasirov	107	Lisoniy variativlikni sotsiolingvistik yondashuv asosida o'rganish masalalari
S. Togaymurodova	110	Electronic education tools in fll: a comprehensive study among uzbek students
N. Kallibekova	114	Using appropriate materials to engage teenage students in the tasks in EFL classrooms
Sh. Bekmuratova	118	Enhancing ESL learning: nurturing productive skills through an inductive approach
Sh. Makhmudova	122	Appraisal and review of e-learning and ICT systems in teaching process
Sh. Qodirova	124	Difficulties in developing english listening comprehension skills using audiovisual media
		MILLIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARI
A. Anvarov	129	Milliy madaniy merosimizning o'ziga xos xususiyatlari
		QIYOSIY PEDAGOGIKA
M. Choriyeva	131	O'zbek va xitoy tillaridagi birlamchi murojaatlar tahlili
B. Ziyatova	135	Choy marosimi – Xitoy madaniyatining o'ziga xos jihati sifatida
M. Baxromova	141	Janubiy Koreyaning milliy madaniyati va qadryatini o'ziga xosligi

ZAMONAVIY TA'LIM VA SHARQONA TARBIYA UYG'UNLIGI

Xorijiy davlatlarda aksariyat oliy ta'lim muassasasi davlat tasarrufidan chiqarilgan va xususiy muassasalarning ulushi yuqoriligi natijasida ta'lim xizmatlari tovar kabi baholanmoqda. Har bir oliy ta'lim muassasasi o'z mijozlarini o'zi topishi tamoyilida ishlamoqda. Sifatli kadr tayyorlaydigan oliy ta'lim muassasalari iqtisodiy jihatdan rivojlanib bormoqda. Hozirgi vaqtda oliy ta'lim sifatini xalqaro darajaga ko'tarish va integratsion jarayonlarning paydo bo'lishi oliy ta'limni bir mamlakat doirasida rivojlana olmasligini ko'rsatmoqda.

Respublikamiz oliy ta'lim tizimida keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda. Ushbu chora-tadbirlarda taraqqiy etgan davlatlar oliy ta'lim muassasalari bilan iqtisodiy aloqalarni kuchaytirish va ilg'or tajribalarni amaliyotda joriy etishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida xalqaro tajribalardan kelib chiqib oliy ta'limning ilg'or standartlarini joriy etish, oliy ta'lim muassasalarining akademik mustaqilligini ta'minlash va sog'lom raqobat muhitini yaratish, oliy ta'limning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish, xorijiy ta'lim va ilm-fan texnologiyalarini jalb etish va oliy ta'lim mazmunini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish kabi muhim vazifalar belgilandi.

Oliy ta'lim sifatini ta'minlashning milliy tizimlari turli mamlakatlardagi ta'lim tizimi, davlatlarning tashkiliy va madaniy an'analariga ko'ra jiddiy farqlanadi. O'zbekiston sharoitida oliy ta'lim sifati ko'p qirrali konsepsiya hisoblanadi. Sifat ta'lim sohasidagi barcha funksiya va faoliyat turlarini – o'quv va akademik dasturlar, ilmiy tadqiqot va stipendiyalar, mutaxassis xodimlar bilan to'liq ta'minlanganlik, ta'lim oluvchilar, binolar, moddiy-texnik baza va jihozlar, jamiyat va akademik muhit farovonligi yo'lidagi barcha ishlarni qamrab olishi kerak. Shuningdek, xalq xo'jaligi va ta'limning qaysi turi va bosqichi bo'lmasin, uning bozor iqtisodiyoti sharoitida yashashi va amal qilishi sifat mezoni asosiga tayanadi.

Oliy ta'lim sohasida sifatning taminlanishi provardda yetuk kadrlar tayyorlashga sabab bo'ladi. Ayni paytda tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, ta'lim sifatini oshirishdagi bosh masala – ta'lim mazmuni hozirgi ishlab chiqarish va jamiyatning ehtiyojlarini qondirishi, talabalarda ta'lim olish jarayonida bo'lajak mutaxassislardagi muhim kasbiy sifat jihatlarini shakllantira olishi lozim.

Oliy ta'lim va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi bog'liqlikning kuchayib borishi oliy ta'lim sifatiga bo'lgan talablarni o'z-o'zidan shakllantirgan. O'zgaruvchan sivilizatsiyalar va globallashuv davrida mamlakatning raqobatbardoshligi ko'p jihatdan oliy ta'lim sifati darajasiga bog'liq, u qan-chalik yuqori bo'lsa, davlatning xalqaro bozordagi raqobatbardoshligi shunchalik yuqori bo'ladi. Ushbu omillar oliy ta'limni bozor mexanizmlariga

to‘liq bo‘ysunadigan sohaga aylantirdi, iqtisodiy sohalar bilan aloqasida muhim ahamiyat kasb etdi va bugungi kunda ta’lim sifati bozor orqali namoyon bo‘lmoqda.

Birlashgan millatlar ta’lim, bilim va madaniyat tashkiloti – YUNESKO tomonidan 1998-yilda o‘tkazilgan konferensiyada butun dunyo dekleratsiyasi qabul qilindi va uning 11-moddasi “Sifatni baholash” deb nomlandi. Bunda oliy ta’lim sifati ko‘p o‘lchamli konsepsiyadan iborat ekanligi ta’kidlandi. Ushbu konsepsiyada o‘quv va akademik dasturlar, ilmiy tadqiqot ishlari, professor-o‘qituvchilar, talabalar, o‘quv binolari, moddiy-texnika bazasi, jihozlar, jamiyat uchun sifatli kadrlar tayyorlash, akademik muhit sifatni belgilovchi dasturlar keltirilgan.

“Alfraganus University” nodavlat oliy ta’lim muassasasida oliy ta’lim sifati unga ta’sir etuvchi omillarga, jumladan, talablar (maqsad, standartlar, ta’lim mezonlari); resurslar bilan ta’minlanishi (ta’lim dasturlari, kadrlar salohiyati, abiturientlar kontingenti, infratuzilma, moddiy-texnika ta’minoti, moliya); ta’lim jarayonlari (ilmiy va o‘quv faoliyati, boshqaruv, ta’lim texnologiyasi) jiddiy e'tibor qaratilmoqda.

Bugungi kunda “Alfraganus University” nodavlat oliy ta’lim muassasasida ayni paytda jamiyat uchun kadrlarning kasbiy sifatlari bilan birga gumanitar sifatlari ham ahamiyatli ekanligini va bu ikki tomonni bir-biridan ajratish mumkin emasigini, bozor munosabatlari sharoitida kadrlarning kasbiy sifati (qiymat yarata olishi) obyektiv ravishda birinchi o‘ringa chiqib qolishi ustida jadal ishlar olib borilmoqda.

“Alfraganus University” nodavlat oliy ta’lim muassasasi yoshlarni buyuk ajdodlarimiz kabi go‘zal xulq va odobli, keng qamrovli – bilimli, dunyo tamadduni rivojiga munosib hissa qo‘sha oladigan darajada kamolotga erishishlarini, yuksak ma’naviy mezonlar bilan uyg‘unlashgan umuminsoniy qadriyatlarni chuqur hurmat qilish ruhida ulg‘ayishlarini ta’minlash borasida barcha bir tan, bir jon bo‘lib harakat qilishi eng muhim va eng dolzarb vazifalaridan biri bo‘lib hisoblaydi.

Oliy ta’lim sifatini ta’minlashning samarali tizimini shakllantirish strategik ustuvor vazifa hisoblanib, ta’lim siyosatini hamma sub'ektlarini (mintaqaviy, milliy, xalqaro, institutsional) faol o‘zaro hamkorlikda xarakat qilishini taqozo etmoqda.

“Alfraganus University” nodavlat oliy ta’lim muassasasi quyidagi rivojlanish strategiyasii belgilab olgan:

– bitiruvchilar malakasini oshirishdan manfaatdor bo‘lgan ish beruvchilar, jamoat tashkilotlari bilan aloqlarni kengaytirish;

– talabalar o‘qishini pirovard natijalariga, jumladan, mutaxassisligi bo‘yicha ishga joylashuviga e'tibor qaratish;

– oliy ta’lim sifatini oshirishning ichki mexanizmiga asosiy e'tiborni qaratish oliy ta’lim tizimida ishlayotgan professor-o‘qituvchilarni ta’lim sifatini oshirishga bo‘lgan ichki rag‘batlarini kuchaytirish imko-niyatini berish;

– oliy ta’lim muassasasining natijalarini OAV, internet tizimida keng nashr etish, e'lon qilish;

– oliy ta’lim sifatini xalqaro qiyosiy taqqoslanishini ta’minlash.

Shuni unutmasligimiz kerakki, yurt kelajagi, vatanimiz taraqqiyoti va xalqimizning ertangi kuni qanday bo‘lishi farzandlarimiz va yoshlarimizning bugun qanday ta’lim va tarbiya olishiga bog‘liqdir. Shu sababli har bir ota-ona, ustoz va murabbiy har bir bola timsolida avvalo shaxsni ko‘rishi zarur. Ana shu oddiy talabdan kelib chiqqan holda, o‘nib-o‘sib kelayotgan yoshlarni mustaqil va keng fikrlash qobiliyatiga ega bo‘lgan, ongli yashaydigan komil insonlar etib voyaga yetkazish – ta’lim-tarbiya sohasining asosiy maqsadi va vazifasi bo‘lishi lozim.

Muxamadismoil MAXMUDOV,
"Alfraganus University"
nodavlat oliy ta'lim muassasasi rektori

MILLIY OLIY TA'LIMNI "ZAMONAVIY TA'LIM VA SHARQONA TARBIYA UYG'UNLIGI" TAMOYILI ASOSIDA RIVOJLANTIRISH – RAQOBATBARDOSHLIK GAROVI

Annotatsiya

Maqolada oliy ta'lim sifatining mohiyati, oliy ta'lim sifatini ta'minlashga qaratilgan zamonaviy yondashuvlar umumlashtirilgan. Milliy oliy ta'limni "Zamonaviy ta'lim va sharqona tarbiya uyg'unligi" tamoyili asosida rivojlantirish masalalari mualliflik yondashuvi asosida ochib berilgan. Shuningdek, oliy ta'lim sifatini ta'minlash chora-tadbirlari, amalga oshirishga qaratilgan xulosa va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan hamda oliy ta'lim muassasalarining rivojlanish strategiyasi tavsiya etilgan.

Kalit so'zlar. Oliy ta'lim, ta'lim sifati, zamonaviy ta'lim, sharqona tarbiya, sifatni baholash, tizimli yondashuv, uyg'unlik, oliy ta'lim muassasasi.

В статье обобщена сущность качества высшего образования, современные подходы, направленные на обеспечение качества высшего образования. На основе авторского подхода раскрываются вопросы развития отечественного высшего образования на основе принципа "Гармония современного образования и восточного воспитания". Также, были разработаны меры по обеспечению качества высшего образования, выводы и практические рекомендации, направленные на реализацию авторского подхода, рекомендована стратегия развития высших учебных заведений.

Ключевые слова. Высшее образование, качество образования, современное образование, восточное воспитание, оценка качества, системный подход, гармония, высшее образовательное учреждение.

The article summarizes the essence of the quality of higher education, modern approaches aimed at ensuring the quality of higher education. Based on the author's approach, the issues of development of domestic higher education are revealed based on the principle of "Harmony of modern education and oriental education". Also, measures were developed to ensure the quality of higher education, conclusions and practical recommendations aimed at implementing the author's approach, and a strategy for the development of higher educational institutions was recommended.

Key words. Higher education, quality of education, modern education, oriental education, quality assessment, systematic approach, harmony, higher educational institution.

Xorijiy davlatlarda aksariyat oliy ta'lim muassasasi davlat tasarrufidan chiqarilgan va xususiy muassasalarning ulushi yuqoriligi natijasida ta'lim xizmatlari tovar kabi baholanmoqda. Har bir oliy ta'lim muassasasi o'z mijozlarini o'zi topishi tamoyilida ishlamoqda. Sifatli kadr tayyorlaydigan oliy ta'lim muassasalari iqtisodiy jihatdan rivojlanib bormoqda. Hozirgi vaqtda oliy ta'lim sifatini xalqaro darajaga ko'tarish va integratsion jarayonlarning paydo bo'lishi oliy ta'limni bir mamlakat doirasida rivojlana olmasligini ko'rsatmoqda.

Respublikamiz oliy ta'lim tizimida keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda. Ushbu chora-tadbirlarda taraqqiy etgan davlatlar oliy ta'lim muassasalari bilan iqtisodiy

aloqalarni kuchaytirish va ilg‘or tajribalarni amaliyotda joriy etishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida xalqaro tajribalardan kelib chiqib oliy ta’limning ilg‘or standartlarini joriy etish, oliy ta’lim muassasalarining akademik mustaqilligini ta’minlash va sog‘lom raqobat muhitini yaratish, oliy ta’limning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish, xorijiy ta’lim va ilm-fan texnologiyalarini jalb etish va oliy ta’lim mazmunini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish kabi muhim vazifalar belgilandi.

Oliy ta’lim sifatini ta’minlashning milliy tizimlari turli mamlakatlardagi ta’lim tizimi, davlatlarning tashkiliy va madaniy an’analariga ko‘ra jiddiy farqlanadi. O‘zbekiston sharoitida oliy ta’lim sifati ko‘p qirrali konsepsiya hisoblanadi. Sifat ta’lim sohasidagi barcha funksiya va faoliyat turlarini – o‘quv va akademik dasturlar, ilmiy tadqiqot va stipendiyalar, mutaxassis xodimlar bilan to‘liq ta’minlanganlik, ta’lim oluvchilar, binolar, moddiy-texnik baza va jihozlar, jamiyat va akademik muhit farovonligi yo‘lidagi barcha ishlarni qamrab olishi kerak. Shuningdek, xalq xo‘jaligi va ta’limning qaysi turi va bosqichi bo‘lmasin, uning bozor iqtisodiyoti sharoitida yashashi va amal qilishi sifat mezoni asosiga tayanadi.

Oliy ta’lim sohasida sifatning taminlanishi provardda yetuk kadrlar tayyorlashga sabab bo‘ladi. Ayni paytda tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, ta’lim sifatini oshirishdagi bosh masala – ta’lim mazmuni hozirgi ishlab chiqarish va jamiyatning ehtiyojlarini qondirishi, talabalarda ta’lim olish jarayonida bo‘lajak mutaxassislardagi muhim kasbiy sifat jihatlarini shakllantira olishi lozim.

Oliy ta’lim va iqtisodiy o‘sish o‘rtasidagi bog‘liqlikning kuchayib borishi oliy ta’lim sifatiga bo‘lgan talablarni o‘z-o‘zidan shakllantirgan. O‘zgaruvchan sivilizatsiyalar va globallashuv davrida mamlakatning raqobatbardoshligi ko‘p jihatdan oliy ta’lim sifati darajasiga bog‘liq, u qanchalik yuqori bo‘lsa, davlatning xalqaro bozordagi raqobatbardoshligi shunchalik yuqori bo‘ladi. Ushbu omillar oliy ta’limni bozor mexanizmlariga to‘liq bo‘ysunadigan sohaga aylantirdi, iqtisodiy sohalar bilan aloqasida muhim ahamiyat kasb etdi va bugungi kunda ta’lim sifati bozor orqali namoyon bo‘lmoqda.

Birlashgan millatlar ta’lim, bilim va madaniyat tashkiloti – YUNESKO tomonidan 1998-yilda o‘tkazilgan konferensiyada butun dunyo deklaratsiyasi qabul qilindi va uning 11-moddasi “Sifatni baholash” deb nomlandi. Bunda oliy ta’lim sifati ko‘p o‘lchamli konsepsiyadan iborat ekanligi ta’kidlandi. Ushbu konsepsiyada o‘quv va akademik dasturlar, ilmiy tadqiqot ishlari, professor-o‘qituvchilar, talabalar, o‘quv binolari, moddiy-texnika bazasi, jihozlar, jamiyat uchun sifatli kadrlar tayyorlash, akademik muhit sifatni belgilovchi dasturlar keltirilgan.

Oliy ta’lim sifati unga ta’sir etuvchi omillarga, jumladan, talablar (maqsad, standartlar, ta’lim mezonlari); resurslar bilan ta’minlanishi (ta’lim dasturlari, kadrlar salohiyati, abituriyentlar kontingenti, infratuzilma, moddiy-texnika ta’minoti, moliya); ta’lim jarayonlari (ilmiy va o‘quv faoliyati, boshqaruv, ta’lim texnologiyasi) bog‘liq.

Jamiyat uchun kadrlarning kasbiy sifatlari bilan birga gumanitar sifatlari ham ahamiyatli ekanligini va bu ikki tomonni bir-biridan ajratish mumkin emasligini, bozor munosabatlari sharoitida Oliy ta’lim muassasalari kadrlarning kasbiy sifati (qiymat yarata olishi) obyektiv ravishda birinchi o‘ringa chiqib qolishini inobatga olib, o‘z strategiyalarini ishlab chiqishlari zarur.

Oliy ta’lim muassasalari raqobatbardosh bo‘lish uchun “Zamonaviy ta’lim va sharqona tarbiya uyg‘unligi” tamoyili asosida rivojlanishlar, yoshlarni buyuk ajdodlarimiz kabi

go‘zal xulq va odobli, keng qamrovli - bilimli, dunyo tamadduni rivojiga munosib hissa qo‘sha oladigan darajada kamolotga erishishlarini, yuksak ma’naviy mezonlar bilan uyg‘unlashgan umuminsoniy qadriyatlarni chuqur hurmat qilish ruhida ulg‘ayishlarini ta’minlash borasida barcha bir tan, bir jon bo‘lib harakat qilishi eng muhim va eng dolzarb vazifalaridan biri bo‘lib qoldi.

Sharq allomalari o‘z asarlarida farzandlarga tarbiya va ta’lim berish, uni ma’rifat-u madaniyatga yetaklash, yoshlarni halol mehnat bilan hayot kechirishga undaydigan, xolis va ezgu ishlar bilan el – yurtga naf yetkazadigan, tiriklik mazmunini teran anglab, to‘g‘ri xulosa chiqaradigan insonlar bo‘lishiga undovchi hayotiy qarashlari, hikmatlarning ahamiyati beqiyosdir.

Bugun ilm-fan va ta’lim izchil rivojlanib borayotgan bir davrda hech shak-shubhasiz tarbiya ta’limning asosida turishi shartdir. Shunday ekan, ilm-fan ta’lim-tarbiya asosida olib borilishi maqsadga muvofiqdir. Qolaversa, har bir pedagog, muallim va ustozning ta’lim berishdan maqsadi – kelajagi porloq, Vatan va el-yurt xizmatida turadigan halol kadrlarni tarbiyalash bo‘lsagina, bunday ta’lim-tarbiya o‘z samarasini bermay qolmaydi. Ya’ni, bugungi kunning o‘qituvchi va muallimi o‘zi ta’lim berayotgan shaxsga fidoyilik bilan ta’lim berishi, qolaversa jonkuyar tarbiyachi bo‘lishi shart. Ayni damda tarbiya sohasida o‘qituvchi va muallimlar o‘quvchi yoshlarga shaxsan namuna bo‘lishlari ham muhimdir!

Jahondagi globallashuv jarayonlari, jamiyat va biznesni internatsionallashuvi milliy oliy ta’lim tizimi oldiga tez o‘zgarib borayotgan global mehnat bozorida samarali ishlay oladigan malakali kadrlarni tayyorlashni taqozo etmoqda. Oliy ta’lim ijtimoiy ne’mat bo‘lishi bilan bir qatorda mijozga yo‘naltirilgan ta’lim xizmati tizimiga aylanmoqda.

Shuni unutmasligimiz kerakki, yurt kelajagi, vatanimiz taraqqiyoti va xalqimizning ertangi kuni qanday bo‘lishi farzandlarimiz va yoshlarimizning bugun qanday ta’lim va tarbiya olishiga bog‘liqdir. Shu sababli har bir ota-ona, ustoz va murabbiy har bir bola timsolida avvalo shaxsni ko‘rishi zarur. Ana shu oddiy talabdan kelib chiqqan holda, o‘nib-o‘sib kelayotgan yoshlarni mustaqil va keng fikrlash qobiliyatiga ega bo‘lgan, ongli yashaydigan komil insonlar etib voyaga yetkazish – ta’lim-tarbiya sohasining asosiy maqsadi va vazifasi bo‘lishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli Farmoni. https://lex.uz/docs/4545884

2. Raxmonov N.R. Mintaqaviy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish asosida oliy ta’lim tizimida kadrlar tayyorlash sifatini oshirish: Iqtisodiyot fan. dok. dis. ... avtoref. – T.: O‘zMU, 2019. – 16 b.

3. Всемирная Декларация о высшем образовании для XXI века: подходы и практические меры. // Axborot texnologiyalari va masofaviy o‘qitish markazi axborotnomasi. – T.: № 6, 2002.– 22 b.

4. Vlasceanu L., Grunberg L., Parlea D. Quality Assurance and the Development of Course: A Glossary of Basic Terms and Definitions. - Bucharest: UNESCO, 2004. – p. 178.

Dilnoza SABIRJONOVA,
“Alfraganus University” nodavlat oliy ta’lim muassasasi,
‘‘Xorijiy filologiya’’ kafedrasi o‘qituvchisi

BO‘LAJAK INGLIZ TILI O‘QITUVCHILARINNG SOTSIOLINGVISTIK KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH

Annotatsiya

Ushbu maqolada bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining sotsiyolingvistik kompitentligini shakllantirishda ta’lim texnologiyalarini o‘rni va modullarni takomillashtirish xususida so‘z boradi. Shuningdek, ilmiy va rasmiy adabiyotlar umumlashtirilib mazkur mavzu yuzasidan tegishli taklif va tavsiylar keltiriladi.

Kalit so‘zlar. Sotsiyolingvistik kompitentlik, metod, nazariya, ta’lim modullari, texnolodiyalar, takomillashtirish.

В данной статье рассматривается роль образовательных технологий и совершенствование модулей в формировании социолингвистической компетентности будущих учителей английского языка. Также обобщается научная и официальная литература, приводятся соответствующие предложения и рекомендации по данной теме.

Ключевые слова. Социолингвистическая компетентность, метод, теория, образовательные модули, технологии, совершенствование.

This article examines the role of educational technologies and the improvement of modules in the formation of sociolinguistic competence of future English teachers. The scientific and official literature is also summarized, and relevant suggestions and recommendations on this topic are provided.

Key words. Sociolinguistic competence, method, theory, educational modules, technology, improvement.

O‘zbekistonda uzluksiz ta’lim tizimining “O‘zbek modeli” ilg‘or tajribalarni ta’lim jarayoniga tatbiq etish, ta’lim sifati va samaradorligiga erishishda dunyodagi rivojlangan mamlakatlar ilg‘or tajribalarining maqbul mazmuni, mexanizmlari, innovatsion shakl va metodlari hamda vositalarini milliy ta’lim tizimiga mos xolda amaliyotda qo‘llash orqali uziga xos va o‘ziga mos ravishda rivojlanib bormoqda.

Jumladan, mazkur DTS belgilab berilgan “Chet tillari bo‘yicha ta’limning barcha bosqichlari bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan talablar” 2013-2014 o‘quv yilidan boshlab bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etila boshlandi. Uzluksiz ta’lim tizimining barcha bosqichlarida chet tillarini o‘qitishning asosiy maqsadi jadal rivojlanayotgan ijtimoiy hayotda kundalik, ilmiy va sotsiolingvistik soxalarda xalqaro miqyosda erkin faoliyat olib borishlari uchun chet tillarida kommunikativ kompetentlikni shakllantirishdan iboratdir.

DTSda kompetensiyalar uchta guruhda tasnif etiladi:

– lingvistik kompetensiya (fonetika, leksika, grammatika) haqida bilimlar va nutq faoliyati turlari (tinglash, gapirish, o‘qish va yozish) bo‘yicha ko‘nikmalarni egallashdan iboratdir;

– sotsiolingvistik kompetensiya ijtimoiy-madaniy kompetensiyani o‘z ichiga olib, autentik nutqning milliy xususiyatlarini: o‘zi yashayotgan mamlakatning urf-odatlari, qadriyatlari, marosimlari va boshqa milliy-madaniy xususiyatlarini bilish hamda tili o‘rganilayotgan mamlakat bilan taqqoslagan holda taqdim eta olish qobiliyatini ko‘zda

tutadi;

– pragmatik kompetensiya o‘rganilayotgan chet tilida kommunikativ vaziyatda tushunmovchiliklar paydo bo‘lganda takroran so‘rash, uzr so‘rash va hokazolar orqali murakkab vaziyatlardan chiqib keta olish qobiliyatini nazarda tutadi.

Ingliz tili o‘qituvchilari kasbiy kompetentligining yaxlit-mazmunli, ijtimoiy-madaniy, o‘quv-bilish, axborot olish, kommunikativ, ijtimoiy-faoliyatli va amaliy faoliyatli; konseptual, instrumental, qadriyatli-etnik, integrativ, kontekstual, moslashuvchanlik jihatlarni mustaqil davlatlar hamdo‘stligi olimlari R.S.Arefev, N.I.Arshinova, S.A.Balandin, S.N. Belakon, L.A.Borxodoev, T.I.Gustomyasova va boshkalar tomonidan tadqiq etilgan. Maqola mavzusi siyosiy, falsafiy, tarixiy, tilshunoslik, pedagogik, psixologik, huquqshunoslik va ingliz tili metodikasiga oid, madaniyatga oid ilmiy-metodik adabiyotlarni qiyosiy-tanqidiy o‘rganildi.

Mazkur standartda diskurs kompetensiyasi pragmatik kompetensiya tarkibiga kiritilgan. Diskurs kompetensiya og‘zaki va yozma nutqdagi izchillikni ta’minlashda lingvistik signallarni tushunish va interpretatsiya qilish ko‘nikmalarini nazarda tutadi.

DTS ning xarakterli jihati shundan iboratki, unda chet tili bo‘yicha barcha darajalar uchun bitiruvchilar egallashi lozim bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malaka talablari hamda ta’lim mazmuni belgilab berilgan. Asos qilib esa umumyevropa xalqaro standarti darajalari, ya’ni CEFR - chet til bo‘yicha umumyevropa tavsiyalari mazmuni, chet tillarni integrativ yondashuv asosida o‘rganishda xalqaro standartlarda ko‘zda tutilgan 4 ta ko‘nikmaga -chet tilida o‘qish, yozish, eshitish va gapirish darajalari olingan.

Ta’lim sifati va samaradorligiga erishish har qanday davlat milliy ta’lim tizimining bosh maqsadi bo‘lib, bu jarayon oliy ta’lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini muttasil rivojlantirish, uning me’yoriy-huquqiy asoslarini takomillashtirish,o‘quv-uslubiy ta’minoti, ta’lim menejmenti va nazoratini zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida modernizatsiya qilish, kadrlar tayyorlash tizimini jahon, jamiyat, buyurtmachi korxona va tashkilotlar ehtiyojlariga mos ravishda tashkil etish, oliy ta’lim tizimi o‘qituvchilarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimi ta’lim mazmunini xorijiy tajribalar asosida takomillashtirish taqazo etiladi. Buning negizida esa chet tillarini chuqur egallash zamirida quyidagi muammolarni yechimini topishga qaratilgan ta’lim tizimi shakllantirilishi nazarda tutiladi:

– dunyo ta’lim tizimlarining integratsiyalashuviga erishish;

– professor-o‘qituvchilar va talabalarning ta’lim berish va ta’lim olish borasidagi erkin mobilizatsiyasiga erishish;

– soha kompetentli kadrlari uchun global hudud va mintaqalar yaratish;

– soha kompetentli kadrlari tayyorlash, uning boshqaruv tizimi uchun maqbul yagona qoida va talablar tizimini yaratish;

– xalqaro standartlarga mos sotsiolingvistik bilim, ko‘nikma va malaka talablarini, ularni baholash tizimlarini birhilligiga erishish;

– fan, ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasini ta’minlash;

– an’anaviy ta’lim usullarini o‘rniga zamonaviy, innovatsion ta’lim usullaridan keng foydalanish va umr buyi ta’lim olish tizimiga o‘tish va boshqalar[4].

Bu borada amalga oshirilayotgan isloxotlarni ro‘yobga chiqarishda chet tillarini mukammal egallash orqali quyidagi umumiy xalqaro ahamiyatga ega tendensiyalarga e’tiborni qaratish taqazo etiladi:

– ta’lim hususan oliy ta’lim menejmentini nomarkazlashtirish va demokratlashtirish;

– oliy ta’lim muassasalari mustaqilligini kengaytirish;

– ta’lim menejmenti va moliyalashtirishni bozor munosabatlariga mos shakllantirish;

– oliy ta’lim muassasalarining kadrlar salohiyati va raqobatbardoshligini oshirib borish kabilardir.

“Til kunikmalari integratsiyasi”, “Xorijiy tilni o‘qitishda. madaniyatlararo muloqotni shakllantirish”, “Mamlakatshunoslik” modullari asosida tajriba-sinov ishlarini o‘tkazdik. Shuningdek, ushbu modullar bo‘yicha o‘quv dasturlarining tadqiqot mavzusi doirasidagi imkoniyatlarini tahlil qildik.

“Til kunikmalari integratsiyasi” moduli dasturida bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilari egallashi kerak bo‘lgan til o‘rganilayotgan mamlakat madaniyati va madaniyatlarini qiyoslash va taqqoslash malakasini oshirish; madaniyatlararo muloqotga taalluqli masalalarga tanqidiy nazar bilan yondashish, ularni tug‘ri talqin qilish orqali tinglab tushunish, so‘zlashish, o‘qish va yozish ko‘nikmalarini axborot qabul qilish va yetkazish uchun amalda qo‘llay olish; madaniy muxitning tilni kullashdagi ta’siri xakidagi uz tushunchalarini oshirish; uzga madaniyatni tushunish va unga nisbatan bagrikenglik xislatini shakllantirish; xissiyotlarni va munosabatni kurgan-kechirganlarni batafsil bayon kilaolish kabi sotsiolingvistik kompetensiyaga yunaltirilgan bilim, kunikma va malakalarni shakllantirish nazarda tutiladi.

Bo‘lajak ingliz tili ukituvchilari sotsiolingvistik kompetensiyasini shakllantirishda “Xorijiy tilni o‘qitishda madaniyatlararo muloqotni shakllantirish” modulining xam imkoniyatlari nixoyatda kattaligi o‘z isbotini topdi. “Xorijiy tilni ukitishda madaniyatlararo mulokotni shakllantirish” moduli amaliy kurs bulib talabalarni sotsiolingvistik yunalish doirasida tilning og‘zaki va yozma shakllarini urgatish, ularning ijtimoiy-madaniy muloqot malakalarini rivojlantirish, xususan urganilayotgan chet tilining funksional shakllari va uslublarini, til tugrisidagi amaliy va nazariy bilimlarini takomillashtiradi. Modulning maksadi bulajak ingliz tili ukituvchilariga egallangan bilim, ko‘nikma, malakalarini sotsiolingvistik va ilmiy faoliyatda erkin qo‘llay olishlarini ta’minlashga o‘rgatadi. Modulning asosiy vazifasi umume’tirof etilgan xalqaro me’yorlarga ko‘ra talabalarning o‘rganilayotgan chet tilini S1 darajada egallashlari uchun zaruriy bilimlarni integrallashgan tarzda urgatish va muloqot malakalarini rivojlantirish nazarda tutiladi. Mazkur modul dasturi esa madaniyatlararo mulokotning xalkdar, millatlarning ijtimoiy-siyosiy turmush rivoji ta’siriga oid mavzular bilan boyitilishi maqsadga muvofiqdir.

Xulosa qilib aytganda, bulajak ingliz tili o‘qituvchilarining sotsiolingvistik kompetentligini shakllantirishda ta’limning yuqori boskichlarida dialogni nafaqat o‘rganilayotgan tilning madaniyati vakillari bilan, balki ingliz tilidan xalqaro muloqot tili sifatida foydalanadigan boshka madaniyatlar vakillari bilan xam olib borishga e’tiborni qaratish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Богомолов А.Н. Средства массовой коммуникации: культурологический и дидактический аспекты: автореф. Дис... канд. культурол.наук: 24.00.04 \ Богомолов Андрей Николаевич. – М.: 1997. – С. 24.

2. Jalolov J.J. Chet til ukitish metodikasi. Chet tillar oliy ukuv yurtlari (fakultetlari) talabalari uchun darslik kayta ishlangan va tuldirilgan 2 -nashri. -Toshkent: Ukuvchi, 2012. - 432 b.

3. Ishmuxamedov R., Yuldashev M. Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. (ta'lim tizimi xodimlari, metodistlar, tarbiyachi va murabbiylar uchun ukuv kullanma). – T.: Nihol, 2013. -278 b.

4. Рискулова К.Ж. Технология развития социокультурной компетенции будущих преподавателей английского языка. // The way of science International scientific journal. – Volgograd, 2016. 3(25). -P.113-115.

Mastona GOZIYEVA,
“Alfraganus University” nodavlat oliy ta’lim muassasasi,
‘‘Xorijiy filologiya’’ kafedrasi o‘qituvchisi

AUTENTIK VIDEOMATERIALLAR VOSITASIDA TALABALARNING INGLIZ TILIDAGI SOTSIOPRAGMATIK KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING SAMARALI YO‘LLARI

Annotatsiya

Maqolada chet tilini o‘zlashtirish mobaynida o‘rganilayotgan xorijiy tilni faqat lingvistik xususiyatlarini o‘zlashtirish haqiqiy yozma va og‘zaki aloqani ta’minlanishi aytib o‘tilgan. Shuningdek, xorij tilini o‘rganayotgan o‘quvchi o‘rgangan tilidan foydalanish mobaynida duch kelishi mumkin bo‘lgan ijtimoiy pragmatik muammolari hamda til o‘rganishda autentik video materiallarning afzaliklari va ularni o‘rni haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar. Autentik materiallar, kommunikativ kompetensiya media,videofilmlar, videomateriallar, chet tili o‘qitish.

В статье отмечается, что в процессе овладения иностранным языком только овладение языковыми особенностями изучаемого иностранного языка обеспечивает реальное письменное и устное общение. В нем также рассказывается о социальных прагматических проблемах, с которыми учащийся, изучающий иностранный язык, может столкнуться в процессе использования изучаемого языка, а также о преимуществах аутентичных видеоматериалов и их роли в изучении языка.

Ключевые слова. Аутентичные материалы ,коммуникативная компетентность СМИ, видео, видеоматериалы, обучение иностранному языку.

The article notes that in the process of mastering a foreign language, only mastering the linguistic features of the studied foreign language provides real written and oral communication. It also talks about the social pragmatic problems that a student learning a foreign language may encounter in the process of using the language being studied, as well as the benefits of authentic video materials and their role in language learning.

Key words. Authentic materials, media communication competence, videos, video materials, foreign language teaching.

Hozirgi kunda video materiallar nafaqat kundalik hayot faoliyatining bir qismidir, balki ular o‘quv mashg‘ulotlarida va sinfdan tashqari holatda barcha o‘quvchilar uchun ingliz tilini chet tili sifatida o‘qitishda samarali usul sifatida namoyish etilmoqda. Doimiy o‘zgaruvchan texnologik o‘zgarishlar o‘qituvchilar uchun yangi imkoniyatlar, ta’lim beruvchi hamda ta’lim oluvchiga birdek qiziqarli va mazmunli bo‘lgan an’anaviy o‘quv mashg‘ulotlari vaziyatlariga videolar, onlayn materiallar, taqdim etmoqda. Video materiallarning afzalligi shundaki ular orginallik va autentivlikni ta’minlaydi va xaqiqiy til egalari tomonidan ishlab chiqilgan filmlar, turli televizion shoular, dasturlar, qo‘shiqlar orginal va autentik usulda ta’lim oluvchilarga chet tilini mazmunli yetkazishga xizmat qiladi. Videolardan turli xil ta’lim jaryonida foydalanish mumkin hamda ular o‘quv mashg‘ulotlarida tarkibni(kontent) taqdim etish, munozarani boshlash, ma’lum bir mavzu va tarkib uchun illyustratsiya berish, o‘z-o‘zini o‘rganish va baholash holatlari uchun samarali vositalardan biridir.

O‘qituvchilarning o‘quv mashg‘ulotlarida videomateriallardan foydalanishi, talabalarga o‘rganilayotgan til egalari haqida keng miqyosda madaniy ma’lumotlarni va o‘rganilayotgan material xaqida psixologik munosabatlarni to‘g‘ridan to‘g‘ri o‘zlashtirib

olishda keng imkoniyatga ega bo‘lishlariga turtki bo‘ladi. Shuning sababdan, talabalar chet tilini o‘rganishda ulardan mustaqil foydalana oladilar. Videomateriallarni ko‘rish paytida talabalar o‘zlarini videomateriallar tomonidan taqdim etilayotgan yorqin muhit ichiga o‘zlarini qo‘yib ko‘rishlari va belgilar orqali namoyish etilgan tilning pragmatikasini tushunishlari mumkin. An’anaviy ingliz tilini o‘qitish bilan taqqoslaganda, ushbu o‘quv mashg‘ulotlari haqiqatan ham talabalarga yo‘naltirilgan o‘qitishni strategiyalarni amalda qo‘llaydi. Video materiallar va filmlar o‘zga madaniyat va mentalitetni tushunishga katta hissa qo‘shadi. Video materiallar o‘quvchilarga turli kommunikativ vaziyatlarni o‘quv mashg‘ulotlariga olib kirish orqali tili o‘rganilayotgan madaniyatda o‘zlarini qanday tutishlarini ko‘rsatib beradi.

Chet tili o‘quv mashg‘ulotlarida video tomosha qilish passiv faoliyat turi bo‘lmasligi lozim. O‘qituvchi talabalarni o‘qish, yozish, gapirish va tinglash kabi to‘rtta ko‘nikmalarni qamrab olgan vazifalar orqali til o‘rganishga yo‘naltirishi zarur. Melonifikriga ko‘ra videomateriallardan til o‘rganishda foydalanish talabalarning motivatsiyasini, autentik tilni va global hushyorlikni oshishiga zamin bo‘la olishini tasdiqlaydi.

Paulsen ma’lumotlariga ko‘ra, onlayn materiallardan samarali foydalanish talabalar uchun chet elda ta’lim olish paytida til va madaniyatga singib ketgandek ijobiy natijalar bilan ta’minlashi mumkin. Bunday ijobiy ko‘rsatgichningning ikkita muhim sababi autentivlik va rag‘batdir. U: ‘‘chet tilini o‘qitishda bunday elektron texnologiyalardan foydalanish zarurmi yo‘qmi degan savol emas balki ularni qanday ishlatish va talabalarga ulardan qanday foydalanish bo‘yicha ko‘rsatmalar berish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri sifatida tahlil qiladi ‘‘Chuo va Kungesa turli xil EFL/ESL talabalari uchun qo‘shimcha vebsaytlaridan foydalangan holda ijobiy natijalariga erishganliklarini ko‘rsatib berganlar. Bundan tashqari, Beatty til o‘rganishda kompyuterning muhim roli haqida aniq ko‘rsatmalar keltirib o‘tgan va kompyuter yordamida til o‘rganish (KTO‘) ta’lim sohasiga tobora yangi texnologiyalar kirib kelgani sayin oshib borayotganligini o‘z fikr mulohazalarida keltirib o‘tadi. So‘nggi texnologiyalardan foydalangan holda, Kempbell EFL o‘quv mashg‘ulotlarida o‘quv salohiyatini oshirish uchun veb-jurnallar va Flickr (foto almashish) qanday ishlatilishini tasvirlaydi. Shermantil o‘qitish mashg‘ulotlariga autentik video materiallarni kiritish bo‘yicha ishonchli dalillarni taqdim etgan.

You Tube talabalarni, allaqachon ularning hayotiy tajribasini bir qismiga aylanib ulgurgan, autentik ingliz tili muhiti bilan bog‘lash potensialiga ega. Barcha turdagi videolar,yuqorida aytib o‘tilganidek, autentik pop madaniy tayyor mavjud material manbai sifatida taqdim etilgan. Ingliz tilidagi videokliplar talabalarni ommaviy madaniyat bilan tanishish orqali ta’lim olish qobiliyatiga ega bo‘lishga undaydi, ular yanada chuqurroq bilim olishga intiladilar, o‘zlarining til qobiliyatlarini ko‘proq rivojlantirishni istagan talabalar uchun onlayn foydalanish huquqi kontekstni chuqurroq tushunishga turtki beruvchi omil bo‘lishi mumkin. Bundan tashqari, videofilmlar talabalarni mustaqil o‘quv mashg‘ulotlarida shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim sifatida o‘ziga jalb etadi. W. Rivers so‘zlariga ko‘ra, ko‘plab ommaviy axborot vositalari va vizual taqdimotning ko‘plab uslublari til o‘rganuvchi uchun foydalidir. Uning ta’kidlashicha ‘‘barcha audiovizual materiallar o‘z vaqtida, kerakli joyda ishlatilsa, til o‘rganishga ijobiy hissa qo‘shadi. Til o‘rganish va o‘qitish jarayonida o‘quvchilar ko‘zlari bilan bir qatorda quloqlaridan foydalanadilar;ammo ularning ko‘zlari asosiy vazifa bajaruvchilardir. ‘‘Lug‘at va grammatikadan foydalanish bo‘yicha odatiy mashqlardan tashqari, talabalardan mavzular, syujet tafsilotlari yoki hatto qahramonlar xaqida ingliz tilida yozish, taqdim etish yoki munozara qilish so‘ralishi mumkin.

Video materialni taqdim etishning ikki daqiqasi yangiliklar yoki e’londan tashkil topishi mumkin , video bo‘yicha berilgan topshiriq esa bir soatlik o‘quv mashg‘ulotini turli topshiriqlar va mashqlar bilan ta’minlaydi hamda ulardan mashg‘ulot davomida keng foydalanish mumkin. Biz bilamizki, so‘z boyligidagi kamchiliklar hatto oddiy vazi-

fani ham talabalar uchun juda murakkablashtirishi mumkin.

O‘qituvchilar uchun videomateriallarni yana bir muhim jihatlaridan biri bu talabalarga oson tushunishni targ‘ib qilishda ko‘proq qiziqarli bo‘lishida desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Video so‘zlar bilan ifoda etib bo‘lmaydigan ‘‘ming so‘zga arziydigan surat ‘‘ya’ni ko‘rgazmali qurollarni so‘z ifodasidan ko‘ra samarali ta’siri ta’rifiga mos ravishda barcha narsani aniq tasvirlab beradi. Lug‘at va grammatikadan foydalanish bo‘yicha odatiy mashqlardan tashqari, talabalardan mavzular, syujet tafsilotlari yoki hatto qahramonlar xaqida ingliz tilida yozishlari, taqdim etish yoki munozara qilishlari so‘ralishi mumkin. Buckett & Stringer videokonferensiya aloqa platformasi, (masalan, qoshlarini chimiradigan, jilmayadigan, jumboqli), reaksiyalar ma’nolarni aniqlash (memlar orqali) va o‘qitilayotgan tilga tegishli bo‘lmagan ba’zi nonverbal mimikalarni o‘rganish usuli sifatida baholash usulini taqdim etadi. Stempleskining EFL/ESL sinflar uchun boyitilgan va mazmunli autentik material bu video dasturiy ta’minot manbalardir, autentik video material ayniqsa ELT muhiti bo‘lmagan sharoitda (ESL) ikkinchi til sifatida ingliz tilini o‘qitishda qiziqarli hamda mazmunli sanaladi.Ko‘p holatlarda to‘g‘ri video materiallardan foydalanish,EFL talabalarini til sohiblari bilan o‘zaro kross madaniy hamda tilni o‘zga madaniyat orqali tushunishlariga yordam beruvchi maqsadda ta’lim berishga qaratilganligi bilan o‘ziga xosdir.

Ingliz tilini video materiallar bilan o‘qitishning o‘quvchilarga ta’siri ko‘p hollarda o‘qituvchilar va o‘quvchilarning qilgan say-harakatlari bilan unchalik mos kelmasligi mumkin, sababi o‘qituvchilar video materiallarga tegishli topshiriqlar yuzasidan aniq maqsadlarga ega emaslar. Chet tili o‘qituvchilari o‘quv mashg‘ulotlarida video materiallardan foydalanganda, aniq maqsadlarni yodda tutishlari kerak, chunki ular o‘z maqsadlariga erishish uchun o‘quv rejalarini tayyorlashlari va ularni amalda tadbiq etishlari kerak. Umuman olganda, til o‘qituvchilari video materiallar bilan o‘qitishda o‘z oldilariga uchta maqsadni qo‘yishlari lozim. Birinchi va asosiy maqsad EFL/ESL talabalarining til ko‘nikmalarini, xususan tinglash va gapirish qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam berishdir. Videomateriallar EFL/ESL talabalari duch keladigan tinglab tushunish materiallari uchun ko‘rgazmali vositalari bilan ta’minlaydi.

Tilni o‘rganish nazariyalari shuni ko‘rsatadiki, tilni o‘rganish jarayoni uchta asosiy qismni o‘z ichiga oladi: tilni kiritish (o‘qish va tinglash), assimilyasiya (ichki ishlov berish va yodlash) va tilni chiqarish (gapirish, yozish va tarjima). Ko‘rinadiki, chet tili ta’limi jarayonida atuentik videomateriallar ta’lim oluvchining ijtimoiy-madaniy,sotsiopragmatik kompetentligini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Real hayotiy vaziyatlardan olingan hissiyotlar asosida talabalarning tinglab tushunish va gapirish ko‘nikmalari rivojlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Stempleski S & P Arcario (undated) Video in Second Language Teaching and Learning TESOL Inc

2. Tomalin B (undated) Teaching young children with video in Stempleski S & Arcario P (eds)

3. R.G‘. Safarova., R.H. Jo’raev Pedagogik ensiklopediyasi’’da 2-jild -b277-2015 – Toshkent.

4. Vakhob Nazarov Xorijiy tillarni o‘qitishda media ta’lim va multimedia texnologiyalarining ahamiyati October DOI:10.13140/РГ.2.2.18230.24646 Project: Development of language competences of pupils through the use of multimedia resources in French (based on the secondary school) TSUUL. – B25–2019

Davron VALIYEV,
"Alfraganus University" nodavlat oliy ta'lim muassasasi,
''Xorijiy filologiya'' kafedrasi o'qituvchisi

TILSHUNOSLIK VA FONETIKANING SHAKLLANISHI VA TARAQQIYOTI

Annotatsiya

Maqolada tilshunoslikning boshqa fanlar bilan bog'liqligi va tilning mohiyati haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, tilning paydo bo'lishi va rivojlanishi, sistemasi va strukturasi, tillarning tipologik tasnifi, genetik tipologiya hamda o'zbek adabiy tilining shakllanishi va taraqqiyoti yoritilgan.

Kalit so'zlar. Tilshunoslik, tilning mohiyati, aloqa vositasi, fikr almashinuv, jamiyat, o'zbek adabiy tili, qiyosiy tipologiya, yozuv, tillar oilasi.

В статье рассматривается связь языкознания с другими науками и сущность языка. Также освещаются возникновение и развитие языка, его система и структура, типологическая классификация языков, генетическая типология, а также формирование и развитие узбекского литературного языка.

Ключевые слова. Языкознание, сущность языка, средства общения, обмен идеями, общество, узбекский литературный язык, сравнительная типология, письменность, языковая семья.

The article examines the relationship of linguistics with other sciences and the essence of language. The article also highlights the emergence and development of the language, its system and structure, typological classification of languages, genetic typology, as well as the formation and development of the Uzbek literary language.

Key words. Linguistics, the essence of language, means of communication, exchange of ideas, society, Uzbek literary language, comparative typology, writing, language family.

Tilshunoslik (grekcha lingua – til, tikos – fan so'zlaridan "lingvistika"), murakkab va ko'p qirrali, boshqa ijtimoiy fanlar bilan uzviy bog'liq bo'lgan tilni ilmiy va amaliy o'rganuvchi fandir. Tilni har tomonlama chuqur o'rganish nazariy va amaliy ahamiyatga egadir. Shu sababli tilshunoslikni faqat nazariy fan deb emas, balki tatbiqiy (ingliz. applied, rus. прикладная) va amaliyot uchun kerakli, ya'ni insonlar muloqoti uchun zarur fan sifatida qaramoq darkor. Tilshunoslik fanining asosiy vazifalari quyidagilardir:

– tilning yozuvi va imlo qoidalarini ishlab chiqishning nazariy va amaliy asoslarini ko'rsatib berish;

– tilning talaffuz me'yorlarini belgilashning nazariy va amaliy asoslarini ishlab chiqish;

– tilning fonetika va fonologiyasi, morfologiya va sintaksisi, leksika va semantikasi (so'zlaming yasalishi va ma'nolari), stilistikasini o'rganish asoslarini belgilab berish;

– til va jamiyat, til va tafakkur, til va madaniyat, til va psixologiya, til va semiotika (ramziy belgilami o'rganuvchi fan, lotincha semi – Gejiru, Hiuopa tikos – fan) kabi tilga bog'liq masalalami tadqiq qilish;

– tilning nutq va nutq faoliyati bilan munosabatini o'rganish;

– tarixiy yozma manbalami ilmiy o'rganish asoslarini ishlab chiqish;

– eng qadimiy til, proto til ("bobo til") va uning boshqa tillar va shevalariga

munosabatini o‘rganish;

– tilning hozirgi (uni “sinxroniya” deyiladi) holati bilan tarixiy rivojlanish bosqichlarini (uni “diaxroniya” deyiladi) ilmiy tadqiq qilish;

– qadimiy yozuvlarni o‘rganish yo‘li bilan eng qadimiy tillarni tiklash yoki ulardagi turli alomatlarni aniqlash. Yuqoridagilardan ko‘rinadiki, tilshunoslik fani aw a’lo nazariy va ikkinchi navbatda tatbiqiy – amaliy fandir. Bu fanning aniq chegarasi yo‘q, u ko‘p qamrovli, ko‘p qirrali va har tomonlama boshqa fanlar va ulaming sohalari bilan bog‘liq bo‘lgan fandir. Tilning o‘zi esa juda murakkab ijtimoiy hodisa bo‘lib, u belgilar tizimi sifatida insonlaming muloqot vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Bu o‘rinda til va nutqni farqlash zarur bo‘ladi. Nutq – bu tilning va undagi belgilaming barcha qo‘llanish holatlarini qamrab oladi. Yozma shaklda o‘qib berish uchun tayyorlangan roman, qissa, hikoya va h.k. nutqqa tegishlidir. Leldn ulardagi, ya’ni nutqda doimiy qo‘llanuvchi va ustuvor bo‘lib qolgan jamiyat a’zolari tomonidan e’tirof etilib qabul qilingan nutqdagi unsurlar majmui til deb yuritiladi.

Tilshunoslik nazariyalari uchun eng zarur tushunchalar tilning sistemasi va strukturasidir. Tilning sistemasi undagi barcha birliklar va bosqichlar (sathlar) o‘rtasidagi o‘zaro ichki bog‘lanishlar va munosabatlarning majmui sifatida izohlanadi. Tilning stmkturasi esa shu bog‘lanish va munosabatlarning qay tarzda ekanligini ifodalaydi. Ba’zan sistema va stmktura tushunchalari farqlanmaydi. Aslida til sistemasi boshqa fanlar sistemasi kabi o‘z strukturasiga ega. Ko‘pincha “struktura” tushunchasini “tarkib” sifatida qaraladi. Lekin aslida tarkib tildagi bosqichlar, hodisa va jarayonlar tarkibi bilan chegaralanib qoladi. Struktura tushunchasi tarkibni ham qamrab oladi va fonemalar, morfemalar, gap tarkibi kabilarni o‘z ichiga olib, ulaming o‘rtasidagi bog‘lanishlarni va shu jumladan til bosqichlarining (sathlari) o‘zaro munosabatlari qanday tarzda tuzilganini izohlaydi. Sistema va struktura tushunchalari bir mavzuga – tilga qaratilgani birisiz ikkinchisi bo‘lmasligini ko‘rsatadi. Shu sababli til – sistemaviv – strukturaviv tuzilma sifatida qaraladi. Tilning har bir bosqichi (fonologiya, morfologiya, sintaksis, leksika, stilistika) ham o‘z sistemasiga, to‘g‘rirog‘i “kichik sistema”siga ega. Shu sababli til butun bir sistemalar sistemasi sifatida izohlanadi.

Fonetika (grekcha phone – “tovush”, tike – “fan” so‘zlaridan) inson nutqini ifoda qilish uchun zarur bo‘lgan tovushlar va ularning vositalari haqidagi tilshunoslik sohasidir. Nutq tovushlari va ularning vositalari bo‘lgan bo‘g‘in, urg‘u, intonatsiya murakkab va ko‘p qirrali xususiyatlar hisoblanadi va shu tufayli to‘rt tomonlama o‘rganiladi:

1) artikulyatsion (fiziologik) – tovushlaming talaffuzida nutq organlarining xizmati; 2) akustik (fizik) – nutq tovushlari va ularning vositalari fizik tebranishlar natijasidir; 3) eshitib his etish (psixologik) tomoni, ya’ni nutq tovushlari, bo‘g‘in, urg‘u va intonatsiya eshituvchi tomonidan anglab his etiladi; 4) fonologik (yoki sotsia), funksional) jihatdan nutq tovushlari va ulaming vositalari tildagi so‘zlar, so‘z formalari, iboralar va gaplami bir-biridan farqlash, ularing ma’nosini kengroq ochish uchun zarurdir. Yuqoridagi to‘rt tomonlama qarashni ba’zan artikulyatsion fonetika, akustik fonetika (u ba’zan eshitib his etish tomonini ham o‘z ichiga oladi) va fonologiya nomlari bilan ham ataladi. Ular nutq tovushlari, bo‘g‘in, urg‘u va intonatsiyani alohida tasnif qilish usullariga ega bo‘lib, bir-biri bilan uzviy bog‘liqdir.

O‘zining o‘rganish sohasi va vazifalariga ko‘ra, fonetika ikki turli bo‘ladi: 1) umumiy fonetika – jahondagi barcha tillarga xos bo‘lgan talaffuz xususiyatlarini o‘rganadi; 2) tasviriy fonetika – biror tilga xos bo‘lgan talaffuz alomatlarini o‘rganadi. Masalan, rus tili fonetikasi, o‘zbek tili fonetikasi kabi. Qo‘yilgan maqsadga ko‘ra fonetika ikki turli bo‘ladi:

1) nazariy fonetika u biror tilning talaffuz alomatlarini nazariy jihatdan tasnif etadi; 2) amaliy yoki normativ fonetika esa, biror tiining taiaffuziga o‘rgatish maqsadida

